

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari .....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala .....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatini va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	

**Mushohada**

# JSTGA A'ZOLIK YANGI O'ZBEKİSTONNI JAHON IQTISODIYOTIGA OLAMSHUMUL INTEGRATSIYALASHTIRADI

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolarini" ilmiy tadqiqot markazi direktori, i. f. d., professor

**So'nggi olti yilda mamlakatimiz xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik masalasiga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. Bu borada turli iqtisodiy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik asosida milliy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish masalasiga ustuvor maqsad sifatida yondashilmoqda. Jahon savdo tashkiloti – dunyodagi eng yirik xalqaro iqtisodiy, jahon mamlakatlarining o'zaro savdo hamda savdo siyosati rejimini boshqaruvchi xalqaro tashkilot. Xalqaro savdoda tashkilotga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan hukumatlararo ko'p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (General Agreement on Tariffs and Trade – GATT) negizida tashkil qilingan. BMT tizimiga kiradi. Bosh idorasi Shveytsariyada (Jeneva). JST jahon savdosi qoidalarini ishlab chiqish yo'li bilan davlatlar savdo siyosatiga ta'sir ko'rsatish, savdo munosabatlarini erkinlashtiradigan va qat'iy tartib-qoidaga soladigan muzokaralar uchun yig'ilishlar o'tkazish, davlatlararo savdoda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish va boshqa vazifalarni bajaradi. JSTning oliy organi – barcha a'zo mamlakatlar Vazirlar Konferensiysi bo'lib, kamida 2-yilda bir-marta o'tkaziladi. Joriy ishlarga Bosh kengash (tovarlar savdosi bo'yicha kengash, xizmatlar savdosi bo'yicha kengash, intellektual mulk masalalari bo'yicha kengash), sekretariat, doimiy qo'mitalar rahbarlik qiladi. JST faoliyati a'zo mamlakatlarning o'zaro manfaatlarini turli tadbirlar (asosan boj imtiyozlari, to'siqlari)ni qo'llash bilan himoya qilishga qaratilgan. A'zo mamlakatlar JST talablarini bajarish bilan birga tashkilotning boshqa a'zolariga savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimini (birinchi navbatda boj tariflarini pasaytirish) qo'llaydi, o'z ichki bozorini chet el korporatsiyalari uchun ochiq qilish majburiyatini oladi.**

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi katta mehnat talab qiladigan jarayon. Ayni paytda O'zbekiston JST tarkibida bo'Imagani uchun global iqtisodiy jarayonlardan chetda qolmoqda. 2019-yil iyul oyida O'zbekiston JSTga a'zo bo'lism uchun tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandumni ko'rib chiqishga taqdim etgan paytda boshlangan. 2019-yil noyabrida Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning JSTga kirishi uchun 5 mln yevro ajratgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydag'i "Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qaroriga asosan Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya tuzilgan. 2020-yil iyulidan buyon bir necha bor Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O'zbekiston va JST mamlakatning mazkur tashkilotga a'zo bo'lishi bo'yicha qo'shma ishchi guruh uchrashuvlari bo'lib o'tgan. Joriy yilning iyun oyi boshidagi davlatimiz rahbarining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimi joriy etildi. Bu davlat rahbarining "O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lism jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilandi. Shuningdek, 1-iyuldan boshlab, Jahon savdo tashkiloti qoida va me'yorlariga muvofiq bo'Imagan normativ-huquqiy hujjalalar loyihalarini ishlab chiqish taqilandi. Adliya vazirligiga milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish funksiyasi yulkanadi. Buning uchun ilgari maqbullashtirilgan shtat biriklari hisobidan qo'shimcha 5 shtat birligi ajratiladi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tuzilmasida maxsus departament hamda yana 20 ta vazirlik va idoralar joriy shtatlari doirasida tegishli bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Xalqaro savdo markazi tomonidan "O'zbekistonning JSTga kirishiga ko'maklashish" bo'yicha besh yillik loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. 2020-yil fevral oyida boshlangan loyiha O'zbekistonning qo'shilish jarayonidan foydalanish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.



Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda mamlakatlar bir-birlariga nisbatan tashqi savdoni erkinlashtirish siyosatiga o'ta boshlashdi. Keyingi davrlarda esa globalizatsiyaning birinchi to'lqini vujudga keldi. Xususan, tadqiqotlarga ko'ra, Napoleon urushlaridan keyingi davrda transport xarajatlari va tashqi savdoga nisbatan siyosiy cheklovlarning barqaror qisqarib borishi resurslar va tovarlarning erkin harakatiga zamin yaratgan. Keyinroq, Birinchi jahon urushigacha davom etgan mazkur integratsiyalashuv jarayonlari tarixda globalizatsiyaning birinchi to'lqini sifatida e'tirof etilgan. Mutaxassislar orasida tashqi savdoning erkinlashtirilishi mamlakatlar o'tasida turli mojaro va urushlar yuzaga kelishi ehtimolini kamaytiradi hamda mamlakatlar o'z ustunliklaridan foydalangan holda mayjud salohiyatini yuzaga chiqarishiga imkon yaratadi hamda pirovardida farovonlikning oshishi va iqtisodiy o'sishning tezlashishiga xizmat qiladi, degan qarashlar mayjud. Shu nuqtayi nazardan, Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda dunyo miqyosidagi jadal o'sish sur'atlari yuqoridagi qarashlarning isboti, deyish mumkin. XX asrning oxiriga kelib 1995-yilda, salkam o'n yil davom etgan muzokaralardan so'ng, davlatlar o'tasidagi savdo aloqalarini tartibga solish, xalqaro savdoning bir maromda va imkon qadar erkin amalga oshirilishini ta'minlashga mas'ul xalqaro tashkilot JST ga asos solindi. Tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekistonda tashqi savdoga nisbatan to'siqlarning hozirgi darajadan pasayishiga olib keladi, ayni paytda dunyo mamlakatlariga integratsiyani kuchaytiradi. Albatta, tashqi savdoga nisbatan to'siqlarning qay darajada qisqarishi a'zo davlatlar bilan bo'ladigan muzokaralar davomida kelishiladi. Bunda asosiy hamkor davlatlar (Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va boshqalar) bilan bo'ladigan muzokaralar hal qiluvchi muzokaralar hisoblanadi.

Umuman olganda, tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekiston tashqi savdosining hozirgiga nisbatan erkinroq bo'lishiga zamin yaratadi. Davlatlar orasida integratsiyalashuv jarayonlari kuchayib borishi bilan mintaqaviy integratsion tashkilotlar ham rivojlana boshladi. Xususan, Yevropa Ittifoqi bunday tashkilotlarning eng birinchilaridan hisoblanadi. Mintaqaviy integratsion tashkilotlar turli jihatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchi navbatda, integratsiya jarayonlarining turli bosqichlari mayjud bo'lib, hozirgi kunda integratsion tashkilotlar o'tasidagi farqni keltirib chiqaruvchi asosiy omil ham aynan tashkilotning qaysi bosqichda ekanligi hisoblanadi. Jahon savdo tashkilotiga a'zolik bu maqsadlarni amalga oshiruvchi asosiy qadamlardan biri desak aslo mubolog'a bo'lmaydi. Mazkur tashkilot o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak, 1995-yilning boshida asos solingan. Ayni paytda tashkilotga 164 ta davlat a'zo. Jumladan, BMT ga a'zo davlatlarning ko'pchiligi bu tashkilotga a'zo. Davlatimiz rahbari joriy yilning 14-aprel kuni Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari va istiqbollariga oid taqdimot bilan tanishdi. Ilgari mamlakatimiz eksportining yarmi paxta tolasiga to'g'ri kelardi. Uning eksportidan to'liq voz kechilgandan keyin, tayyor kiyim-kechak eksporti 4 baravar ko'paydi. O'tgan yil natijalariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3 milliard 300 ming dollarni tashkil etdi.

Bu borada 2021-yilda davlatimiz rahbari O'zbekiston GSP+ tizimiga qo'shilgani natijasida Yevropa bozoriga tayyor mahsulot eksporti 1,5 baravar oshdi. Tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirishda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yanada keng imkoniyatlar ochadi. Shu bois O'zbekiston 2019-yildan bu xalqaro tuzilmaga a'zolik jarayonini yangidan boshlagan edi. O'tgan davrda bu maqsad sari dadil qadamlar qo'yildi. Kelgusi uch yilda tayyor mahsulot eksportini 2 baravar oshirishni reja qilinayapti. Bunga erishishning birdan bir yo'li JST a'zo bo'lish, deya ta'kidlagan edilar. Bu 164 ta davlat bilan adolatli savdo tizimini yo'lga qo'yish va barqaror bozorlarni yaratish imkonini beradi. Shu paytgacha Jahon savdo tashkilotiga a'zo 50 dan ziyod davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar olib borildi. Bu jarayon bo'yicha joriy yilning mart oyida Jahon savdo tashkilotida ishchi guruhning oltinchi yig'ilishi o'tkazildi. Jahon savdo tashkilotining bitimlaridan kelib chiqib, milliy qonunchilikni unga uyg'unlashtirish, tartib va standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish zarur. Buning uchun xorijiy konsultantlarni jalb qilib, ishchi guruhlarni shakllantirish, barcha vazirliklar va elchixonalar bilan tizimli ishlash kerak bo'ladi. Umuman ushbu moliyaviy tashkilotning ustaviga nazar soladigan bo'lsak, 10 dan oshiq normativ huquqiy bitim talablari mayjud.

Barcha a'zo davlatlar mazkur tashkilot ustavidagi talablarni bajarishi majburiy sanaladi. A'zo bo'lgan ushbu davlatlar o'zlarining milliy qonunchiligidini mazkur talablarga muvofiqlashtirishi lozim bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlashni xohlardim, dunyo savdo aylanmasining 98 foizga yaqini aynan Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Endi savolningizning asosiy mazmuniga keladigan bo'lsak, birinchidan, dunyoning eng rivojlangan davlatlari bilan adolatli savdo tizimini yo'lga qo'yish va barqaror savdo bozorlarini yaratish imkonini beradi. Ikkinchidan, tadbirkorlarimiz uchun kafolatli va xavfsiz xalqaro yo'laklari ochiladi. Tashkilotga a'zo xorijiy davlatlar bilan imtiyozli savdo sotiq-maydoni yaratiladi. Yuqori sifatli jahon standartlariga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish asosida jahon bozorlarida o'z o'rniiga ega bo'ladi. Uchinchidan, uning zamirida iqtisodiy manfaat turadi. Ya'ni to'siqlarsiz o'zaro mahsulot ayirboshlashga erishiladi va tovar ayirboshlanishi yuksak texnologiyalarning qo'llanilishi hamda rivojiga hissa qo'shadi. To'rtinchidan, xalqning turmush darajasini yaxshilanishi kuzatiladi, aholining sifatli mahsulot iste'mol qilish sabablarini vujudga keladi. Besinchidan, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxi tushirilishiga xizmat qiladi. Oltinchidan, lokal ishlab chiqarish hajmini oshib, budjetga tushumlar ko'payadi, geoiqtisodiy liberal lashuvi mamlakat va alohida vatandoshlarimizning daromadlarini oshiradi. Yet-tinchidan, mehnat bandligi va kambag'allikning qisqarishiga olib keladi.



O'zbekiston uchta davlat bilan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni qariyb yakunlayapti. Ishchi guruh tarkibiga jami 47 davlat kiradi, 31 davlat bilan faol muzokaralar olib borilmoqda. O'zbekiston uchta davlat bilan JSTga kirishi bo'yicha muzokaralarni amalda yakunladi. Ularning barchasi dastlab tovar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha muzokaralar olib borish istagini bildirgan. Hozirda 31 davlat bilan muzokaralar olib borilmoqda. Ulardan uchta davlat bilan muzokaralarni yakunlagan. Aprel oyi boshida Toshkentda bo'lib o'tgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston–Gruziya hukumatlararo komissiyasining 9-yig'ilishida Gruziya va O'zbekiston o'rtaida JSTga qo'shilish doirasida tovar va xizmatlar bozoriga chiqish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash to'g'risida bayonnomma imzolangan. Shu tariqa Gruziya O'zbekiston bilan bu boradagi muzokaralarni yakunlagan birinchi davlat bo'ldi. Joriy yilning mart oyi o'rtalarida Jenevada O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhining oltinchi yig'ilishi bo'lib o'tgan. Bugungi kunda savdo rejimi va majburiyatlar yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining aniq sanasini aytish qiyin, chunki bu jarayon murakkab va tashkilotning har bir a'zosi bilan muvofiqlashtirishni talab qiladi.

A'zo bo'lishlikning o'zi nomzod mamlakatlar milliy institutsionallashgan infratuzilmalarini ancha kuchaytirishlariga zarurat paydo qiladi. Nomzod mamlakatlarning aksari kirish haqida bayonot bergenlaridan so'ngina mazkur maqsadlarga mos inson va moliya resurslari yetarli darajada rivojlanmaganligi haqida xulosaga keladilar. Pirovardida bu omillarni rivojlantirishga yillar kerak bo'ladi. Mazkur yo'naliishlarni hosil qilishni tizimli amalga oshirib boradilar. Mamlakatlar tomonidan talab qilingan institutlarni joriy etish, inson resurslarini takomillashtirish va muvofiqlashtirish hamda boshqarish shakllarini yaxshilash chora-tadbirlari ishlab chiqish lozim bo'ladi. Shuningdek, bu ishda xalqaro hamjamiyatning keng qamrovli va obyektiv yordamiga muhtoj bo'ladilar. Shubhasiz, Yevropa Ittifoqi o'zga donorlar qatorida, O'zbekistonga mazkur vazifalarni ijobji hal etilishida SRSPS 2 va boshqa loyihalar asosida strategik maslahatchi, texnik ko'mak, malaka oshirish va boshqa amaliyotlarni berish orqali yordam ko'rsatib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida tashkilotga a'zo bo'lish bo'yicha barcha asosiy muzokaralarni 2023-yil oxirigacha yakunlash, shuningdek, milliy qonunchiligidimizni JST qoidalari va me'yorlariga muvofiqlashtirish, Tashkilot ustavi talablariga mos yangi standartlarni joriy qilish bo'yicha ishlarni jadallashtirishga doir kompleks chora tadbirlarni ko'rish muhimligi alohida qayd etildi. Hozirgi kunda Mamlakatimizning mazkur tashkilotga a'zo bo'lishi tashqi geosiyosiy va geoijtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'naliishlari danadir. Kelgusida milliy iqtisodiyotimizning samarali bo'lishi aynan shu omilga bog'liq.

O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishining obyektiv va subyektiv zaruratlari mavjduligini esdan chiqarmaslik kerak. Zotan yuqorida holatlarga muvofiq Mamlakatimizning tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismi JST ga a'zo mamlakatlardir. Shuningdek, mamlakatimizda eksport qilingan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda notarif tartibga solish usullarini keng joriy etilishi natijasida eksport salohiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlar muayyan resurslarga – inson, sanoat, tabiiy, moliyaviy resurslariga ega, ulardan ichki yoki jahon bozorida sotish uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqishda foydalananadilar. Rivojlangan davlatlar nimani yaxshi ishlab chiqsalar shunga o'z aktivlari va diqqatlarini qaratish orqali foyda olishga intiladi. Ichki bozordagi kompaniyalar uchun bu o'z-o'zidan ro'y beradi. Biroq bu masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi tomoni bu – dunyo bozori. Ko'pchilik kompaniyalar bozor qanchalik katta bo'lsa samarali faoliyat ko'rsatish va ko'proq iste'molchilarga erishish rejasidagi keng miqyosli imkoniyatlarga ega bo'lishlarini tan oladilar. Boshqacha aytganda, tovar va xizmatlarni cheklamaydigan savdo siyosati sifatli dizayndagi va eng yaxshi narxlardagi eng sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Davlatlarning bu tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 8–10 yil, ba'zi davlatlar uchun esa 10–15-yilni tashkil etadi. Mamlakatimiz 1995-yilda ariza topshirgan bo'lishiga qaramasdan, faqat 2017-yildan boshlab, ijobji siljish bo'la boshladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari AQSh, Xitoy, Yaponiya, Yevropa davlatlari JSTdan unumli foydalana oladi. O'zbekiston ham bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligi ularning umumiyligi resurslariga borib taqaladi. MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiyasi 19 yillik kutishlardan keyin 2012-yilda a'zo bo'lishga erishgan. Qirg'iziston 1998-yilda, Tojikiston 2012-yilda, Qozog'iston esa 2015-yilda a'zolikka qabul qilindi. Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon JSTga a'zolikni "energetika mustaqilligiga erishish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash" sari tashlangan muhim qadam, deb izohlagan. Ammo bu jarayon o'z o'zidan oson kechadi, degani emas. Demak, hukumat birinchi navbatda mahalliy kompaniyalarni himoya qilishga qaratilgan jiddiy tadbirlarni ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Agar Xitoy davlatini misol qiladigan bo'lsak, Xitoy 15-yillik murakkab jiddiy muzokaralar olib borgandan so'ng, mazkur kelishuvlar asosida 2001-yil 11-dekabrda tashkilotga 143 a'zo bo'lgan edi. Biroq hukumatga bu borada qator og'ir va mashaqqatli talablarni ilgari surgan. Tariflar masalasida uni pasaytirish, Amerika kompaniyalari uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari tariflarini 25 foizdan 7 foizgacha qisqartirish, fermerlari uchun esa zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini 31 foizdan 14 foizgacha kamaytirish, moliya bank yo'naliishi, sug'urta, telekommunikatsiya va ijtimoiy kasbiy xizmatlar kabi muhim sohalardagi qator tarmoqlarni keng miqyosda imkoniyatlar yaratish, yrik olamshumul islohotlar olib borish, demokratik islohotlar o'tkazish, Mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalardan baryerlarni olib tashlash shular jumlasidandir.



Muzokaralarning yakuniy bosqichida Mamlakatga eksportni rejalashtirish va eksport-import rejalarini amalga oshirish siyosatini rejalashtirish tizimini bekor qilish, tashqi savdo rejimining shaffofligi, ruxsatnoma va kvota tizimini liberallashtirish, davlat xaridlari bozori, xorijiy ishbilarmonlarga ichki bozor xizmatlaridan foydalanishni erkinlashtirish, eksport subsidiyalarini olib tashlash hamda agrar sohani himoya qilish. Shulardan xulosa qilsak, mamlakatimiz zimmasida ham JST tomonidan iqtisodiy va siyosiy ochiqlikni ta'minlash, eksport-import va boshqa iqtisodiy tizimlarda rejalashtirishdan voz kechish, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini import qilish bo'yicha davlat monopoliyasini bekor qilishi surur. Zotan, Xitoy va boshqa yirik davlatlar bu shartlarni qabul qilishni davr zarurati, geoqtisodiy qoidani hurmat qilish, deb tushungan. Oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish borasida xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi mahalliy ishlab chiqaruvchilardan jahon bozorlariga kirib borish uchun ma'lum bilim va ko'nkmalar hamda ishonchli axborotlar kanallariga ega bo'lishni talab etadi. Shuningdek, Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi yuzasidan yakuniy muzokaralar olib borilayotgan bir paytda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini JST talablariga mos holga keltirish muhim vazifalardan sanaladi. Chunki JSTga a'zo bo'lib kirish yuzasidan o'tkazilayotgan ikki va ko'p tomonlama muzokaralarda a'zolikka nomzod mamlakatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi siyosati chuqr o'rganib chiqiladi va muzokaralarning markazida bo'ladi. JSTga a'zo bo'lib kirishda qishloq xo'jaligini tartibga solish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini har tomonlama va chuqr o'rganish hamda ulardan mamlakatimizning sharoitiga moslab unumli foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. JSTga a'zo mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash tadbirlariga qo'yiladigan talablar "Qishloq xo'jaligi bo'yicha bitim" bilan tartibga solinadi. JST doirasida amal qiluvchi mazkur bitimda qishloq xo'jaligini ichki qo'llab-quvvatlash tadbirlari uch toifaga ajratiladi: bozorlarga kirib kelishni tariflar va notarif choralar orqali tartibga solish, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalari. Mamlakatimizning tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismi JSTga a'zo mamlakatlar ekanligi va bu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda O'zbekiston uchinchi davlat sifatida e'tirof etilishi, mamlakatimizdan eksport qilingan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda notarif tartibga solish usullarining keng joriy etilishi mamlakat eksport salohiyatiga ta'sir etishi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro savdo qoidalari ishlab chiqishda ishtirot etmasligi va shu sababli tashqi savdo munosabatlarda muntazam ravishda boshqa davlatlarning diskriminatsion siyosati qoidalariaga duch kelishi kabiladir. O'zbekiston Respublikasi JSTga qo'shilish uchun uning kamida 15 ta bitimlarda aks ettirilgan majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga olishi talab qilinadi. Shu bilan birga, JST bitimlari keng qamrovli va murakkabdir, chunki ular keng doirada jahon savdosini masalalarini qamrab oluvchi yuridik hujjatlar hisoblanadi. Barcha bitimlar negizida a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi fundamental tamoyillar yotadi jumladan:

**Kamsitishlarsiz savdo tamoyili.** Mamlakat o'z savdo sheriklari hamda mamlakat va xorijiy tovarlar, xizmatlar va shaxslar o'ttasida diskriminatsiya o'tkazmasligi kerak.

**Savdo to'siqlarini bartaraf etish tamoyili.** Muzokaralar o'tkazish orqali mavjud savdo to'siqlarini astasekin bartaraf etish.

**Prognoz qilinadigan savdo tamoyili.** Xorijiy investorlar, kompaniya va hukumatlar savdo to'siqlari (jumladan tariflar, notarif to'siqlari va boshqalar) asossiz joriy etilmasligiga ishonch hosil qilishlari shart va bozorni erkinlashtirish majburiyatlari JST zimmasida bo'ladi

**Raqobatbardoshlikni takomillashtirish tamoyili.** JST qoidalari eksportni subsidiyalash va demping kabi "adolatsiz" faoliyatlariga to'sqinlik qiladi.

**Etarli darajada rivojlanmagan davlatlar uchun qulay shart-sharoitlar tamoyili.** Yetarli darajada rivojlanmagan, o'tish davrida bo'lgan davlatlarga maxsus rejimlar taqdim etiladi.

**Savdoni tarif usullari bilan tartibga solish tamoyili.** Bu tamoyil JSTga a'zo davlatlar tashqi savdosini tartibga solishda notarif usullarni qisqartirib yoki yo'q qilib, ko'proq boj tarifi orqali tartibga solishga asoslanishni talab etadi.

**Savdo siyosatining halolligi tamoyili.** Ushbu tamoyil davlatlararo savdo munosabatlarda nosog'lom raqobatni inkor etib, sog'lom raqobat asosida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirishga undaydi.

**Savdo kelishmovchiliklarini konsultatsiya va muzokaralar yordamida hal etish tamoyili.** JSTga a'zo mamlakatlarning o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarda yuzaga keladigan har qanday kelishmovchiliklar faqatgina tinch yo'llar bilan, muzokaralar orqali hal etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha tamoyillarga tashqi savdo bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish, davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha adolatlari raqobat muhitini shakllantirish, rivojlanmagan, o'tish davrida bo'lgan davlatlarga har jihatdan qulaylik berish ustuvor maqsad etib belgilangan.

Aksariyat manbalarda Jahon savdo tashkilotining yuqoridagi afzallik tomonlari bilan birga, uning bir nechta kamchiliklari ham bor, degan fikrlar mavjud. Tashkilot faoliyati bo'yicha xalqaro ekspert Yovan Yekich o'zining taqdimotlarida ushbu tanqidiy fikrlarning ayrimlari to'g'ri emasligini ma'lum qildi. Masalan, keng tarqalgan fikrlardan biri bu tashkilotga a'zo bo'lgandan keyin import tariflari (boj)ning avtomatik ravishda pasayishi



bilan bog'liq. Ekspertning fikricha, aslida unday emas. Chunki bunday pasayish hamma tovarlar uchun tatbiq etilmaydi. Agar hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasida 11295 nomdagi tovarlar mavjud bo'lsa, ularning har biri bo'yicha alohida muzokaralar olib boriladi. Maqsad – ta'sirchan tovarni aniqlash. Ya'ni shunday tovarlar borki, ularning boj stavkalari muayyan davlat iqtisodiyotiga hech qanday salbiy ta'sir qilmaydi. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun subsidiya taqiqlanmagan, ammo a'zolikka qabul qilinishi jarayonida kelishilgan miqdordan oshmasligi lozim. Kichik davlat huquqi katta davlatlar huquqiga nisbatan kamroq ekanligi ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki har bir davlat teng ovozga ega va qarorlar kelishuv asosida qabul qilinadi. Har qanday davlat JST rahbar organining qarori o'z manfaatiga mos kelmaydigan bo'lsa, uni inkor qilishi mumkin. Tashkilot tarixida bunday holatlar kuzatilgan. Shuningdek, tashkilotda kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish mexanizmi sifatida taraqqiyot dasturi mavjud bo'lib, mazkur yo'nalishdagi choralardan ko'zlangan maqsad barcha a'zo mamlakatlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlari JSTga a'zo bo'lismi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga qanday ta'sir etganini tahlil qildi. Bunda JST ga 1990-yildan keyin a'zo bo'lgan 15 ta rivojlanayotgan mamlakatlar eksport va importi, YalMning o'sishi, inflyatsiya, ishsizlik, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YalMdagi ulushi va ishlab chiqarish sanoatining YalMdagi ulushi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, ushu 15 ta mamlakatdan 12 tasida eksportning, 10 tasida esa YalMning o'sish sur'ati tezlashgan. 12 tasida inflyatsiya sekinalashgan va 10 tasida ko'rsatkichlar ko'lami oshgan. Bangladesh, Gonduras, Turkiya va Kamerunda ko'pchilik yo'nalishlar bo'yicha ijobji natija kuzatilgan. Shu bilan birga, salbiy tendensiya hisoblangan ishsizlik darajasi 15 ta mamlakatdan 10 tasida oshgan. Masalan, Bangladeshda ishsizlik 2,3%dan 3,5%ga, Gondurasda 3,4%dan 4,4%ga, Qirg'izistonda 6,8%dan 8,7%ga oshgan. Ushbu mamlakatlarning 2 tasida ishlab chiqarish sanoatining YalMdagi ulushi oshgan bo'lsa, 6 tasida kamaygan. Shuningdek, tashkilotga a'zo bo'lgan Qozog'iston, Turkiya va Gruziyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar JSTga a'zo bo'limgan shunday mamlakatlardagi o'zgarishlar bilan qiyoslandi. Natijalarga ko'ra, sezilarli ijobji o'zgarish faqat eksport va importda kuzatilgan. Qolgan yo'nalishlardagi ko'rsatkichlar deyarli farq qilmagan. Masalan, Qozog'iston JSTga a'zo bo'lgandan keyin ishsizlik darajasi 5,3%dan 4,9%ga pasaygan. Ozarbayjonda ham aynan shu davrda 5,2%dan 4,9%ga kamaygan, O'zbekistonda esa 5%dan 5,6%ga oshgan.

Tahlil natijalariga ko'ra ekspertlar O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalarni beradi: tashqi dunyo bilan erkin raqobatlasha oladigan ishlab chiqarish sohalarini tanlab olish va ularni uzoq muddatli rivojlantirish rejasini ishlab chiqish. Uzoq muddatli samarali sanoat strategiyasini shakllantirish (masalan, Yevropa Ittifoqi o'z sanoat siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab qo'ygan). Korxonalarning tashqi raqobatga bardoshlilik ko'rsatkichi bo'yicha doimiy ravishda o'zini-o'zi monitoring qilib borishiga turki beruvchi mexanizmlarni qo'llash.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, JST dunyodagi eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot bo'lib, unga dunyoning 98 foiz iqtisodiga ega davlatlar a'zo bo'lganligi bu jarayon zamон talabi ekanligini bildiradi. JSTga a'zo bo'lismining o'ziga yarasha tashqi bozorga erkin chiqish, arzon xom ashyolar importi kabi muhim afzalliklari mavjud. Shu bilan birga, a'zo bo'lismi jarayoni uzoq vaqt sarf etiladigan jarayondir. 1994-yilda boshlanib to'xtab qolgan, 2016-yildan keyin amalga oshirilgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan so'ng a'zolikka kirish jarayoni qayta tiklanganligi yaxshi imkoniyat. 2000-yildan boshlanuvchi Xalqaro savdo markazining "O'zbekistonning JSTga kirishiga ko'maklashish" bo'yicha besh yillik loyihasi ushu maqsadlar uchun xizmat qiladi. Shuningdek, erkin savdo muhitida raqobat va salohiyatni saqlab qolish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida eksportga yo'naltirilgan loyihalarni yaratish orqali tarmoq tadbirkorlik tashkilotlari va xususiy sektorni tayyorlash zaruriyati mavjud. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasidagi III asosiy ustuvor yo'nalishi doirasida BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy maqsadlarini, ya'ni eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot, gender tengligi va boshqa ijtimoiy institutlar tashkil etish hamda shaffof savdo tizimini tashkil qilish vazifalarini hisobga olish zarur. Umuman olganda, JSTga a'zo bo'lismi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga to'liqroq integratsiyalashuviga, savdo amaliyotini yaxshilanishiga va iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

